

# JIZZAX VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik sub'yektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik sub'yektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik sub'yektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

## Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z ornida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'nga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



# Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha  
2021-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)

4



## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni



(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)



# Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2021- yil yanvar oyida)

5




# Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar


(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

6

Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl soni  
o'tgan yilning shu davriga nisbatan **38,5** foizga oshdi




■ Kichik tadbirdorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chorvachilik,  
ovchilik va bu sohalarda xizmat  
ko'rsatish

■ O'rmon xo'jaligi

■ Baliqchilik xo'jaligi




# Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)


7



*Jami faoliyat  
ko'rsatayotgan sanoat  
korxonasi va  
tashkilotlarning  
umumiyligi soni o'tgan  
yilning shu davriga  
nisbatan **23,8** foizga  
oshdi*



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlari soni 3 492 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 123,8 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 124,9 % ga (jami sanoatdagi ulushi 94,5 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 107,8 % ga (jami sanoatdagi ulushi 4,0 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 140,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,4 %) o'sishidir va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 2,5 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,1 %) kamayishi kuzatildi.

# Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **10,5 foizga oshdi**




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




**10,4 foizga oshdi**



## Mikrofirmalar




## Kichik korxonalar



## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




**14,5 foizga oshdi**



## Oilaviy korxonalar




**40,0 foizga oshdi**




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan o'sish kuzatilmadi



## Xususiy korxonalar




**1,4 foizga kamaydi**




# Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




## Mikrofirmalar



## Kichik korxonalar



## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




## Oilaviy korxonalar



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



## Xususiy korxonalar




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



## Oilaviy korxonalar soni

*(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)*



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- fevral holatiga ko'ra 1 466 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 687 taga yoki 188,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 355 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 622 taga yoki 184,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 25 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8 taga yoki 9,8 %ga oshganligini ko'rish mumkin.


## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

*(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)*

Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yilning 1- fevral holatiga ko'ra 12 078 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 732 taga yoki 129,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 11 538 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 525 taga yoki 128,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2021- yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 33 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 15 taga yoki 106,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.



# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

12



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra 210 tani tashkil etib, ulardan 206 tasi yoki 98,1 % i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 22 taga yoki 111,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar oyida Jizzax viloyatida 3 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



**96**  
yashash bo'yicha  
xizmatlar



**1 182**  
Oziq-ovqat  
mahsulotlari va  
ichimliklar yetkazish  
bo'yicha xizmatlar


2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 1 278 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 114,3 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 115,1 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 92,5 %), yashash bo'yicha xizmatlarning - 105,5 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 7,5 %) o'sishidir.

# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni

(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

13



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

|  | 2017- yil | 2018- yil | 2019- yil | 2020- yil | 2021- yil |
|--|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|
| Jami   | 70        | 82        | 121       | 181       | 206       |
| shu jumladan:                                      |           |           |           |           |           |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi           | 3         | 6         | 20        | 29        | 36        |
| Sanoat   | 54        | 63        | 70        | 102       | 115       |
| Qurilish   | 2         | 2         | 4         | 8         | 7         |
| Savdo  | 6         | 4         | 16        | 22        | 28        |
| Tashish va saqlash                                 | 2         | 3         | 3         | 5         | 4         |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar          | -         | -         | 1         | 5         | 4         |
| Axborot va aloqa                                   | 1         | 1         | 2         | 3         | 3         |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | -         | -         | -         | -         | 1         |
| Boshqa turlar                                      | 2         | 3         | 5         | 7         | 8         |

# Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

14



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
(2021-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)

15

|                        | Jami       | <i>shundan:</i> |                 |
|------------------------|------------|-----------------|-----------------|
|                        |            | qo'shma korxona | xorijiy korxona |
| <b>Jizzax viloyati</b> | <b>206</b> | <b>132</b>      | <b>74</b>       |
| <b>Jizzax shahri</b>   | <b>68</b>  | <b>47</b>       | <b>21</b>       |
| <b>tumanlar:</b>       |            |                 |                 |
| <b>Arnasoy</b>         | <b>7</b>   | 5               | 2               |
| <b>Baxmal</b>          | <b>8</b>   | 5               | 3               |
| <b>G'allaorol</b>      | <b>20</b>  | 13              | 7               |
| <b>Sharof Rashidov</b> | <b>21</b>  | 11              | 10              |
| <b>Do'stlik</b>        | <b>5</b>   | 3               | 2               |
| <b>Zomin</b>           | <b>16</b>  | 8               | 8               |
| <b>Zarbdor</b>         | <b>3</b>   | 2               | 1               |
| <b>Zafarobod</b>       | <b>8</b>   | 2               | 6               |
| <b>Mirzacho'l</b>      | <b>4</b>   | 1               | 3               |
| <b>Paxtakor</b>        | <b>9</b>   | 8               | 1               |
| <b>Forish</b>          | <b>25</b>  | 20              | 5               |
| <b>Yangiobod</b>       | <b>12</b>  | 6               | 6               |

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Jizzax shahrida 68 ta (umumi miqdoridagi ulushi 33,0 %), Forish tumanida 25 ta (12,1 %), Sharof Rashidov tumanida 21 ta (10,2 %), G'allaorol tumanida 20 ta (9,7 %), Zomin tumanida 16 ta (7,8 %), Yangiobod tumanida 12 ta (5,8 %) hamda Paxtakor tumanlarida 9 ta (4,4 %) ni tashkil etadi.

# Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

16




2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Jizzax shahri (29,0 %), Sharof Rashidov (15,5 %), G'allaorol (8,2 %), Zomin (7,8 %), Forish (7,1 %), Baxmal (6,1 %), Zarbdor (4,8 %), Paxtakor (4,4 %), Do'stlik (4,3 %), Mirzacho'l (3,8 %), Arnasoy (3,5 %), Zafarobod (3,2 %) va Yangiobod (2,3 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil fevral oyida, birlikda)


2021- yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Jizzax shahrida (26,1 %), Sharof Rashidov (14,6 %), G'allaorol (9,3 %), Zomin (9,3 %), Baxmal (7,8 %), Forish (7,4 %), Arnasoy (6,5 %), Paxtakor (4,0 %), Do'stlik (3,4 %), Mirzacho'l (3,4 %), Zarbdor (3,1 %), Zafarobod (3,1 %) va Yangiobod (1,9 %) tumanlari ulushiga ega.



# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

17



## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Jizzax shahrida (35,5 %), Sharof Rashidov (19,6 %), Zomin (6,4 %), Baxmal (6,0 %), G'allaorol (5,5 %), Forish (5,3 %) Zarbdor (4,5 %), Do'stlik (4,3 %), Arnasoy (3,4 %), Mirzacho'l (3,1 %), Paxtakor (2,9 %), Zafarobod (1,9 %) va Yangiobod (1,6 %) tumanlari hissasiga tegishli.

**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining  
qo'shma korxona va xorijiy korxonalariga taqsimlanishi**  
(2021-yil 1-fevral holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)

18



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni

(2021- yilning fevral oyida, birlikda)


19



2021- yil yanvar oyida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Jizzax shahrida (36,0 %), G'allaorol (20,0 %), Sharof Rashidov (20,0 %), Paxtakor (8,0 %), Zarbdor (8,0 %), Zomin (8,0 %) tumanlari ulushni qayd etadi.

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2021- yil yanvar oyida, birlikda)



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

The screenshot shows the official website of the State Statistics Committee of Uzbekistan. The main header reads "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI". The left sidebar has a menu titled "RASMIYIY STATISTIKA" with links like "E'lion qilish taqvimi", "Metama'lumotlar", etc. The central part of the page shows a search form for "Statistik klassifikatsiyalar" (Statistical classification), with a placeholder "Rasmdag'i kodni kiritning" and a "Qidiruv" (Search) button. To the right, there's a sidebar titled "FOYDALI MA'LUMOTLAR" listing various publications and resources.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) va Jizzax viloyati statistika boshqarmasining [www.jizzaxstat.uz](http://www.jizzaxstat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'raleyotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Jizzax viloyati statistika boshqarmasi  
Statistik registrlarni yuritish bo'limi  
Tel.: 72 221-51-24**